



JASORAT ABADIYLASHUVI



Shuhrat SIROJIDDINOV,
akademik

Bu kunda Ikkinchi jahon urushidan oldin va keyingi tariximizda vatanimiz tinchligi va ravnaqi uchun jonini fido qilgan barcha ajdodlarimiz xotirlanadi. Hayot bo'lganlarga esa hurmat-ehtirom ko'rsatiladi, qo'llab-quvvatlov choralari ko'riladi.

Prezidentimiz 9-may — Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan G'alaba bog'ida jamoatchilik vakillari ishtirokidagi uchrashuvda bildirgan fikrlari orqali yana bir bor bobolarimiz jasoratini nafaqat esga oldi, balki har birimizning qalbimizda o'sha xotirani, o'sha fidokorlik ruhini yana bir bor uyg'otdi.

“Eng katta maqsad-muddaomiz — mehnatkash, mard va oiljanob xalqimizni rozi qilishdan iborat”, deya ta'kidladi davlatimiz rahbari. Bu fikr zamirida butun bir siyosat, butun bir xalqparvarlik falsafasi mujassam. Chunki xalq roziligi faqat moddiy farovonlik emas, eng avvalo, tarixni anglash, ota-bobolarning fidokorona jasoratini qadrlash, ularning ruhi oldida doimo qarzдорlik hissi bilan yashashdir.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, urush yillarida O'zbekiston aholisining qariyb uchdan bir qismi — 2 millionga yaqini frontga jo'natilgan. Ularning 600 mingi halok bo'lgan, 200 mingi bedarak ketgan, minglab oilalar qalbida bitmas yaralar qolgan. Bugun bu raqamlar oddiy statistika emas, bu har bir oila, har bir mahalla, har bir yurakdagi hikoyadir.

“Chunki jang maydonlarida yovuz dushmanga qarshi kechayu kunduz mardona olishgan qahramon ajdodlarimizni qancha ko'p ulug'lasak, bugungi ozod va farovon hayotimizni shuncha ko'p qadrlagan bo'lamiz”. Bu fikr — yoshlar uchun alohida saboq. Chunki bugun farovonlikda ulg'ayayotgan avlod urush nimaligini faqat kitoblardan biladi. Shunday ekan, bunday tarixiy nutqlar, yodgorliklar, muzeylar avlodlar o'rtasidagi ko'prikdir.

Poytaxtimizdagi G'alaba bog'ida barpo etilgan yangi bir yodgorlik — **“Millat fidoyilari” yodgorligi** ham aynan shu g'oya — avlodlar xotirasiga bog'lash, fidoyilikni barhayot saqlashga xizmat

9-may — oddiy sana emas. Qalblarimizga abadiy muhrlangan jasorat darsidir. Bu — insoniyat tarixidagi eng mudhish urush, yovuz kuchlarga qarshi o'z hayotini tikkan millionlab yurtdoshimiz xotirasi ehtirom bilan yod etiladigan, o'tganlar yodga olinadigan, farovon kunlarimizga shukrona aytiladigan kun.

qiladi. U vatan himoyasida jon berganlar sha'niga yozilgan abadiy alqovdir.

196 harbiy va huquqni muhofaza qiluvchi fidoyilar nomi zarhal harflarda bitilgan mazkur monument oldida turib, inson beixtiyor hayratda qoladi. Ularning har biri — hayotining eng chiroyli faslida istiqlolimiz, xalqimiz tinchligiga nisbatan real xavf tug'ilgan paytda bir daqiqaga ham o'ylab o'tirmay, jonajon vatanimiz himoyasi yo'lida ko'ksini qalqon qilgan va afsuski, jon bergan. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda, **bu fidoyi harbiylar shu tariqa bugungi yangi O'zbekiston uchun mustahkam zamin yaratib ketdi. Shu bois, ularning xotirasi, ruhi poklari oldida doimo qarzдорmiz.**


“Sun'iy intellekt yordamida marhum jangchi o'g'lonlarimiz bamisoli tirik insondek gapiradi”. Tasavvur qiling, farzand otasining sun'iy intellekt orqali jonlangan timsolida **“Men seni yaxshi ko'raman, o'g'lim”** degan so'zni eshitadi. Bu tarix emas, bu — tirik xotira.

Har qanday davlat, millatning mana shunday mard, qo'rqmas, oilasi, yaqinlari, vatani tinchligi uchun real xavf, kerak bo'lsa, o'limga tik bora oladigan jasur, vatanparvar o'g'lonlari bor ekan, u davlatning istiqloli abadiy, tinchligi boqiy, millatning buguni va kelajagi farovon, buyukdir.

Shu ma'noda, mustaqillik yillarida yurtimizning go'zal Sariosiyo tumani, Toshkent va Andijon viloyatlarida sodir etilgan mudhish terrorchilik harakatlariga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko'rsatib, jon fido qilgan o'g'lonlar nomini abadiylashtirish barchamiz uchun ham qarz, ham farzdir.

Davlatimiz rahbari da'vat etganidek, qahramon jangchilarning oilalari haqida doimo g'amxo'rlik qilishimiz, ularning jasoratini ko'proq targ'ib etishimiz lozim.

Bir so'z bilan aytganda, tarix — hayot maktabi. Undagi har bir sahifa, har bir saboq insoniyat uchun bebaho tajriba manbai. Fidoyi va jasur ajdodlarimizning mardonavor hayoti yo'li esa biz uchun chinakam ibrat maktabidir. Shu bois, ularning nomini abadiylashtirish, xotirasiga chuqur ehtirom va hurmat bajo keltirish nafaqat insoniy burch, balki davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ
TILIDA HAM O'QISH UCHUN
QR-KODNI SKANER QILING!

O'ZBEKISTON – SLOVENIYA: 30 YILLIK SHERIKLIK VA HAMKORLIKNING YANGI UFQLARI

O'ZBEKISTON PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEV 21-22-MAY KUNLARI RASMIY TASHRIF BILAN SLOVENIYADA BO'LADI

Boshlanishi 1-betda

Keyingi yillarda parlamentlararo aloqalar, xalqaro tashkilotlar doirasidagi hamkorlik faollashdi. Xususan, Lyublyana BMT Bosh Assambleyasi tomonidan O'zbekiston tashabbusi bilan qabul qilingan “Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlar rolini kuchaytirish to'g'risida”gi (2022-yil) va “Degradatsiyaga uchragan va qurg'oq hududlarda barqaror o'rmonzorlarni barpo etish, daraxt ekish va ularni targ'ib qilish — ekologik muammolarga qarshi kurashning samarali yechimi” (2024-yil) rezolyutsiyalarini qo'llab-quvvatladi hamda ularning hammuallifi bo'ldi.

2025-2027-yillar uchun BMT Iqtisodiy va ijtimoiy kengashi (EKOSOS) a'zoli uchun saylovda Sloveniya ham O'zbekistonga ovoz berdi. Bundan tashqari, tomonlar 2025-2028-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha qo'mita (O'zbekiston) va 2026-2028-yillarga mo'ljallangan Inson huquqlari bo'yicha kengash a'zoligiga (Sloveniya) bir-birining nomzodini o'zaro qo'llab-quvvatladi.

UNESCO doirasida O'zbekiston 2017-yilda Sloveniyaning Xalqaro gidrologiya dasturining Hukumatlararo kengashi va Xalqaro ta'lim byurosi kengashiga ikkinchi saylov guruhi darajasidagi nomzodini yoqladi.

“Ikki davlat tashqi siyosat idoralari o'rtasida ham konstruktiv muloqot izchil rivojlanyapti. Jumladan, 2024-yil noyabrda Toshkent shahrida Sloveniya Tashqi ishlar va Yevropa masalalari vazirligi davlat kotibi Marko Shtutsin ishtirokida siyosiy maslahatlashuvlarning uchinchi davrasi bo'lib o'tdi. Tomonlar o'zlarining diplomatik ishtirokini kengaytirish istiqbollarini muhokama qildi va maslahatlashuvlarning navbatdagi davrasini 2025-yilda Lyublyanada o'tkazishga kelishib oldi.

Turli darajadagi muntazam uchrashuv va maslahatlashuvlar, jumladan, rasmiy delegatsiyalar tashrifi hamda elchilar almashinuvi xalqaro va mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar yuzasidan bir-birining pozitsiyasini yaxshiroq tushunishga xizmat qilmoqda.

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik ijobiy dinamika bilan ajralib turibdi. Sloveniya Yevropa Ittifoqi a'zosi sifatida YI bilan savdo va sarmoyaviy hamkorlikni kengaytirish nuqtayi nazaridan O'zbekiston uchun strategik ahamiyatga ega. Sloveniya bilan hamkorlikni rivojlantirish investitsiyalarni jalb qilish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish va eksport bozorlarini kengaytirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni ochadi.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmi 40 foiz oshgan 2022-yildan buyon ushbu ko'rsatkich izchil o'sib bormoqda. Bunga O'zbekistonning Yevropa Ittifoqining “GSP+” umumiy imtiyozlar tizimining benefitsiari maqomini olishi ham qulaylik yaratmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekiston va Sloveniya o'rtasidagi



o'zaro tovar ayirboshlash hajmi o'tgan yilga nisbatan 60,3 foiz ko'paydi. 2025-yilning birinchi choragi statistikasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'zaro tovar ayirboshlash hajmi yana 47,8 foiz oshganini ko'rsatmoqda. E'tiborlisi, O'zbekistondan eksport 20 barobardan ziyod ortgani, Sloveniyadan import esa 10 foiz qisqargani o'zbek mahsulotlarining Yevropa bozorida raqobatbardoshligi oshib borayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Sloveniyaga asosan, xomashyo va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qiladi. Sloveniya esa yuqori texnologiyali uskunalar, farmatsevtika, avtomobil butlovchi qismlari va boshqa sanoat tovarlarini yetkazib beradi. Ayniqsa, ishlab chiqarish sanoati va axborot texnologiyalari sohasida tovar va xizmatlar turlarini kengaytirish uchun salmoqli salohiyat mavjud.

2023-yil fevralida Toshkentda O'zbekiston — Sloveniya biznes-forumi bo'lib o'tdi va uning doirasida Iqtisodiy hamkorlik to'g'risidagi bitim imzolandi. Avtomobilsozlik, gidroturbinalar, farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqarish, agrosanoat majmuasini yaratish, shuningdek, Sloveniyaning “Mercator Group” savdo tarmog'ining O'zbekistonda filialini ochish bo'yicha qo'shma loyihalarini amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi.

O'zaro investitsiyaviy sheriklikdan tomonlarning manfaatdorligi hamkorlikni rivojlantirishning muhim omilidir. Iqtisodiy islohotlarni faol amalga oshirayotgan O'zbekiston Sloveniya kompaniyalariga turli tarmoqlar, jumladan, to'qimachilik, qurilish, farmatsevtika va turizm sanoatiga investitsiya kiritish uchun qulay shart-sharoitlarni taklif qilmoqda. Sloveniya kompaniyalari, o'z navbatida, O'zbekistonga innovatsiyalar va yuqori texnologiyalarni taklif etishi mumkin. Bugun O'zbekistonda Sloveniya investitsiyasi ishtirokidagi uchta korxona faoliyat yuritayapti. Ulardan biri qo'shma, ikkitasi esa 100 foiz xorijiy kapital ishtirokidagi korxonadiri.

Energetika, logistika, turizm kabi jabhalarda ham qo'shma loyihalar amalga oshirilayapti. Betakror tabiati va rivojlangan sayyohlik infratuzilmasi bilan mashhur Sloveniya o'zbekistonlik sayyohlarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Shu bilan birga, O'zbekistonning qadimiy shaharlari va boy tarixi sloveniyalik sayyohlarni tobora ko'proq o'ziga jalb qilayotir. Turistik almashinuvlar rivojlanishi aloqalarning chuqurlashishiga yordam beradi.

Oliy darajadagi O'zbekiston — Sloveniya sammiti arafasida O'zbekiston ishbilardon doiralari delegatsiyasining Lyublyanada o'tkazgan muzokaralari chog'ida to'qimachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, mineral o'g'itlar, plastmassa, rangli metallar, qurilish

materiallari, farmatsevtika mahsulotlari, sanoat uskunalari va boshqa tayyor mahsulotlar nomenklaturasi va yetkazib berish hajmini kengaytirish hisobiga o'zaro tovar ayirboshlashni 500 million dollargacha oshirish bo'yicha qator aniq kelishuvlarga erishildi.

“O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi va Sloveniyaning Yevropadagi jug'rofiy joylashuvi ikki mintaqani bog'lovchi transport yo'laklarini rivojlantirishda samarali hamkorlik qilish uchun imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, ikki davlat ham transport-logistika yo'nalishidagi hamkorlikni kengaytirish, jumladan, ikki davlat poytaxtlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yishdan manfaatdor.

Ikki tomonlama munosabatlarda madaniy-gumanitar rishtalar muhim o'rin tutadi. Mazkur jabhadagi yaqin hamkorlik xalqlar o'rtasidagi o'zaro hamjihatlik va do'stlikni mustahkamlashga hissa qo'shmoqda.

Madaniy almashinuv doirasida ikki mamlakat ma'naviy merosini ommalashtirishga xizmat qiladigan ko'rgazmalar, konsertlar va festivallar kabi turli tadbirlar muntazam o'tkazilayotir.

2024-yil noyabrda Toshkentda Sloveniya Tashqi va Yevropa masalalari vazirligi davlat kotibi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda ilmiy va ta'lim loyihalari, akademik almashinuvlar va qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi.

Tahlillar har ikki davlatning ta'lim sohasidagi hamkorlikka qiziqishi ortib borayotganini ko'rsatdi. Shuning uchun bu sohani rivojlantirish o'zaro manfaatli va samarali bo'ladi.

Diplomatik munosabatlar o'matilganining 30 yilligi nishonlanadigan yilda O'zbekiston va Sloveniya o'zaro hurmat hamda umumiy manfaatlariga asoslangan hamkorlikni yanada mustahkamlash istagini namoyon etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston Prezidentining Sloveniyaga bo'lajak tashrifi tug'iz kun tartibi, oliy darajadagi rejalashtirilgan uchrashuv va muzokaralar ikki tomonlama munosabatlarning yangi ufqlarini ochib, ularga jadal tus berishi shubhasiz.

“Dunyo” AA

OROMGOHLAR BOLALARNI KUTMOQDA

Joriy yil 15-may kuni maktab ta'limi tizimidagi islohotlar samaradorligini yanada oshirish hamda kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida yoshlarning bo'sh vaqtini samarali tashkil qilish masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Jumladan, o'quvchilarning yozgi ta'tilini mazmunli tashkil etish bo'yicha qator vazifalar belgilandi.



Bolalarning ta'tilda maroqli dam olishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishida yozgi oromgohlar muhim o'rin tutadi. Shu maqsadda ayni vaqtda hududlardagi oromgohlar mavsumga shay holatga keltirilmoqda.

Navoiy viloyatida joriy yilgi mavsumga tayyorgarlik ko'rish maqsadida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi tizimidagi Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti viloyat boshqarmasi tomonidan

barcha hamkor tashkilotlar bilan birga tizimli ishlar qilinmoqda.

Orttirilayotgan tajribadan kelib chiqqan holda mavsumga tayyorgarlik jarayonida har bir soha, har bir yo'nalishga mas'uliyat bilan yondashilmoqda. Xususan, o'tgan yilgi mavsumdagi tayyorgarlik jarayonida duch kelingan muammoli holatlarning oldini olish maqsadida departament hamda yirik korxonalar tasarrufidagi barcha oromgohlarda ta'mirlash ishlari qish faslidanqo boshlab yuborilgan edi.

Jumladan, departament tasarrufidagi “Ishonchi”, “Tabassum” va “Qiziltepa” oromgohlarida departament va uning viloyat boshqarmasi mas'ullaridan iborat ishchi guruh vakillari o'rganishi natijasida ta'mirlash bo'yicha loyiha smetalari ishlab chiqildi. Ayni vaqtda barcha oromgohda ta'mirlash, obodonlashtirish ishlari bajarilmoqda.

— Oromgohlarda mavsumiy faoliyat yuritadigan pedagoglarni saralab olish eng muhim jarayon, — deydi Bolalarning dam olishini va sog'lomlashtirilishini tashkil etish departamenti Navoiy viloyati boshqarmasi boshlig'i Mansurjon Mansurov. — Yozgi dam olish davrida oromgohlarda mavsumiy ishlash istagini bildirgan pedagoglar, pedagogik amaliyotini oromgohlarda o'tkazish istagidagi talabalarni saralash jarayoni o'tgan yilgi tajribadan kelib chiqib, bu mavsumda ertaroq boshlandi. Joriy yilning mart-aprel oylarida viloyatdagi oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar va umumiy o'rta ta'lim tizimidagi pedagog-kadrlar bilan 30 ga yaqin uchrashuv tashkil etildi. O'n bitta



oromgohda mavsumiy faoliyat yuritadigan 500 ga yaqin pedagogdan iborat jamoalarning tarkibi to'liq shakllantirildi. Ayni vaqtda ular bilan har hafta amaliy tayyorgarlik mashg'ulotlari va seminarlar o'tkazilmoqda.

Albatta, yoz mavsumida oromgohlarda bolajonlar xavfsizligini to'liq ta'minlash, sifati dam oldirish hamda bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun aynan mavsumiy tarbiyachi va yetakchilar faoliyati asosiy omil. Shu tufayli pedagog va talabalarni saralash jarayoni viloyatdagi barcha stasionar oromgohlar mutasaddilari tomonidan tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Nomzodlarni saralashda, avvalo, pedagog va talabalarning bolalar bilan ishlay olish tajribasi, kasbiy

kompetentligi, faolligi va tashabbuskorligiga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Sababi, oromgohlarda belgilangan kunlik dasturlar, tadbir va loyihalarni amalga oshirish hamda to'garaklarni yuritishda ulardan katta mahorat talab etiladi.

Joriy yilda viloyatdagi 11 ta stasionar oromgohda 14 ming 600 o'g'il-qizni dam oldirish va sog'lomlashtirish rejalashtirilgan. Mavsumni sifatlilik tashkil etish maqsadida barcha oromgohga ichki ishlar idoralarning 48 xodimi, 56 tibbiyot xodimi, 38 sport yo'riqchisi va 600 dan ortiq texnik xodim jalb etilishi ko'zda tutilgan.

Viloyatdagi “Ishonchi” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi o'g'il-qizlarning

sevimli maskaniga aylangan. Ushbu oromgoh mavsumning bir oralg'ida 300 bolani bag'riga olish imkoniyatiga ega. Bu yerda yetarli tajriba va malakaga ega pedagoglar, tarbiyachilar, tibbiyot xodimlari jalb etilgan.

“Shabboda” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi Navbahor tumanining so'lim manzilida joylashgan. Tabiati o'ziga xos bu go'shada joriy mavsumda bolalarning vaqtini samarali tashkil etish uchun qizg'in hozirlik ko'rildi. Bu jarayonda madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari, kitob o'qishga qiziqishni oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

— Oromgohimiz maydoni 13 gektar bo'lib, bu yerda bolalarni sog'lomlashtirish, dam oldirish uchun yetarli imkoniyat yaratilgan, — deydi “Shabboda” bolalar sog'lomlashtirish oromgohi direktori Gulnoza Jo'raqulova. — Hududda bog'lar va tarixiy obidalar shaharchasi tashkil etilgan. Ajoyib tabiat havosi bolalarning maroqli dam olishida alohida ahamiyat kasb etadi. Mavsumga tayyorgarlik jarayonida oromgohimizda mutaxassislar tomonidan sanitariya-gigiyena talablari bo'yicha tozalash ishlari bajarildi. Tibbiy punktlar tashkil etilib, zarur dori-darmonlar zaxirasi bilan ta'minlandi. Shuningdek, oromgohni elektr energiyasi bilan uluksiz ta'minlash, sarf-xarajati tejash maqsadida 100 kilovattli quyosh paneli o'rnatilgan.

Albatta, har bir ota-ona farzandlarining yozgi ta'tilni yaxshi sharoitga ega maskanlarda maroqli o'tkazishini xohlaydi. Bu esa bolalarning yangi o'quv yilini yuqori kayfiyatda, o'zgaracha ishtiyq va yangi orzu-maqsadlar bilan boshlashiga xizmat qiladi.

G'olib ABDUSALOMOV,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

2025-yil – Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili

“YASHIL” TARAQQIYOT –

66

O‘zbekiston so‘nggi yillarda bu jarayonda faol ishtirok etib, “yashil iqtisodiyot”ni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Mamlakatimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e‘lon qilinishi ham bu boradagi qat’iy intizom va yuksak maqsadlarning dalilidir.

YANGI DAVRGA XOS YONDASHUV



Erkin GADOYEV,
Oliy Majlis Senati
qo‘mita raisi



Nodir JUMAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik
palatasi qo‘mita raisi

Boshlanishi 1-betda

Jahon banki ekspertlari fikricha, “yashil iqtisodiyot” nafaqat atrof-muhitni muhofaza qiladi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiy tengsizlikni kamaytirishga ham xizmat qiladi. Britaniyalik iqtisodchi olim Nikolas Stern iqlim o‘zgarishiga bag‘ishlangan hisobotida bugun iqlimni muhofaza qilishga sarflangan har bir dollar kelajakda zararlarining o‘nlab dollarini tejashini alohida qayd etadi.

Dunyoda taraqqiyotning an‘anaviy yo‘llari tobora o‘zgarimoqda. Industrial iqtisodiyot modellari o‘rniga ekologik barqarorlik va iqlim muvozanatini saqlashni o‘z ichiga olgan “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasi kun tartibiga chiqmoqda. Ushbu yondashuv nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki yangi ish o‘rinlari yaratish, innovatsiyalar joriy etish va raqobatbardoshlikni oshirish imkoniyatini berishi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbekiston so‘nggi yillarda bu jarayonda faol ishtirok etib, “yashil iqtisodiyot”ni davlat siyosati darajasiga olib chiqdi. Mamlakatimizda 2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili”, deb e‘lon qilinishi ham bu boradagi qat’iy intizom va yuksak maqsadlarning dalilidir.

Mamlakatimiz global yashil kun tartibiga izchil qo‘shilmoqda. Bu borada aniq maqsadlari va amalga oshirayotgan orga qaytmas islohotlari bilan xalqaro maydonda barchaga namuna bo‘lib bormoqda. Buning zamirida, albatta, xalqimizning fidokorona mehnati, muhim tashabbuslar, islohotlarni amalga oshirishdagi tizimli yondashuvlar va har bir sohani qamrab olgan maqsadli strategiyalar, davlat dasturlarining o‘rni beqiyos.

Islohotlar O‘zbekistonning ekologik muvozanat, resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o‘zgarishiga qarshi kurash hamda xalqaro majburiyatlarga sodiq qolish singari yo‘nalishlardagi qat’iy siyosiy irodasini namoyon etmoqda. Eng muhimi, “yashil” taraqqiyot faqat siyosat yoki texnologiya emas, balki ong, tafakkur, kundalik hayot tarzi bilan bog‘liqliyig‘i, inson kapitalini rivojlantirishga alohida e‘tibor berilayotir. Zero, ilmiy qarashlar, amaliy tajriba va jamoat ongi birlashsa, mamlakatimizning “yashil” kelajagi mustahkam poydevorga ega bo‘ladi. Yangi murakkab global muammolar davrida barqaror taraqqiyotga erishish faqat zamonaviy bilim, ilmiy yondashuv va innovatsion qarorlar orqali amalga oshishi mumkin.

Ilm-fanning ustuvorligi mamlakatning barqaror va “yashil” rivojlanish modeliga ega ekanini anglatadi. O‘zbekiston bu yo‘nalishda aniq maqsad va strategik dasturlarga ega. Endi esa uning samarasi ilm-fan sohasidagi islohotlar samaradorligiga, yangi avlod olimlari va innovatsion muhit shakllanishiga bog‘liq. “Yashil iqtisodiyot” faqat resurs yoki energiya masalasi emas, birinchi navbatda, bilimlar va ilmiy salohiyat raqobati ekanini unutmasligimiz zarur.

Joriy yilga mo‘ljallangan davlat dasturi mamlakatimizni ekologik jihatdan barqaror va raqobatbardosh iqtisodiyot sari olib borishda muhim yo‘nalishlarni qamrab olgani bilan ahamiyatlidir. Bu dasturning ijrosi davlatimiz taraqqiyotini barqaror va inson uchun qulay yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi. Mazkur jarayonda har bir fuqaro, har bir oila, har bir jamoaning faolligi mamlakatimizni nafaqat iqtisodiy, balki ekologik jihatdan ham rivojlangan yurtga aylantiradi.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida “yashil” energetika, ekologik investitsiyalar va iqlim muvozanatini saqlash borasida aniq maqsadlar belgilangan. Mazkur hujjatga asosan, “yashil iqtisodiyot” ko‘lamini yanada kengaytirish maqsadida tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta‘minlash, energiya balansida qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish hamda aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun shart-sharoitlar yaratib kelinayapti. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yilgamo‘ljallangan davlat dasturida davlat-xususiy sheriklik asosida yirik “yashil” energiya stansiyalari barpo etish, hududlarda kichik va mikrogidroelektr stansiyalari tarmog‘ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellari o‘rnatishni rag‘batlantirish belgilangan. Bu boradagi qat’iy pozitsiya va aniq maqsadlar samarasi o‘laroq, so‘nggi uch yilda hududlarda 3,5 gigavattli 16 ta yirik quyosh va shamol elektr stansiyasi ishga tushirilib, 35 ta kichik GES qurildi va quyosh panellari o‘rnatgan xonadonlar soni 60 mingdan ortdi. 2025-yil davomida davlat korxonalari, sanoat va xizmat ko‘rsatish majmualari hamda xonadonlarda quyosh panellari o‘rnatishni rag‘batlantirish uchun 2 trillion so‘m kredit mablag‘lari yo‘naltiriladi.

Bu ishlar joriy yilda qat’iy amalga oshirilib, umumiy quvvati 4,5 gigavatt bo‘lgan yirik quyosh va shamol elektr stansiyasini ishga tushirish, quvvati 785 megavatt bo‘lgan quyosh panellari o‘rnatish, quvvati 225 megavatt bo‘lgan gidroelektr stansiyalar barpo etish orqali jami qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushi elektr energiyasi ishlab chiqarishda 26 foizga va 2030-yilda jami generatsiya quvvatlarini tarkibidagi ulushi 40 foizga yetkazilishi maqsad qilingan. Amalga oshiriladigan tadbirlar 2025-yilda elektr



energiyasi ishlab chiqarish hajmini 91 milliard kilovattga, shu jumladan, 2030-yilgacha bo‘lgan davrda 120 milliard kilovattga yetkazish imkonini yaratadi.

Bugungi global iqtisodiy va ekologik voqeelikda toza energetikani rivojlantirish bilan birga, energiya samaradorligini oshirish ham strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu ikki yo‘nalish barqaror rivojlanish, ekologik xavfsizlik va milliy energetika mustaqilligini ta‘minlashning ajralmas qismidir.

Toza energetika, ya‘ni quyosh, shamol, biomassa va boshqa qayta tiklanuvchi manbalarni keng qo‘llash orqali atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar kamayadi, iqlim o‘zgarishi jarayonlari sekinlashadi va tabiiy resurslarga bosim kamayadi. Ushbu sohadagi texnologiyalar investitsiya, yangi ish o‘rinlari va innovatsiyalarni jalb etishi bilan iqtisodiy o‘sish drayveriga aylanib boryapti.

Biroq toza energiya ishlab chiqarishning o‘zi yetarli emas. Ishlab chiqarilgan energiyadan oqilona va tejamkor foydalanish —

eng muhim masala. Bu esa barcha sohalarida energiya samaradorligini oshirishni taqozo etadi. Chunki energiya samaradorligini oshirish orqali korxonalar va uy xo‘jaliklarida elektr va issiqlik energiyasini tejash xarajatlarni kamaytirib, iqtisodiy samara keltiradi. O‘z-o‘zidan kam va maqsadli energiya iste‘moli orqali kamroq ifloslanish va tabiatga kam ta‘sir hisobiga ekologik nafaqa ega bo‘lamiz. Uzatish va taqsimlash tarmoqlariga yuklama kamayadi, avariya ehtimoli pasayib, yetkazib berishda barqarorlikka erishiladi. Eng muhimi, samarali va kam energiya iste‘moli energiya importini kamaytiradi.

Umuman olganda, toza energiyani rivojlantirish barobarida tarmoqlarda energiya samaradorligini oshirish nafaqat iqtisodiy samara, balki ekologik barqarorlik va kelajak avlodlarga munosib hayot muhitini qoldirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Joriy yilga belgilangan kamida 6 foiz iqtisodiy o‘sish sur‘atini saqlab qolish, yalpi ichki mahsulotni 125 milliard dollardan oshirish maqsadiga erishishda omilkorlik va tejamkorlik juda muhim. Shu bois, energiya samaradorligi hisobiga xarajatlarni 15-20 foizgacha qisqartirish va qo‘shilgan qiymatni ko‘paytirish bo‘yicha dastur ishlab chiqiladi.

Ma‘lumotlarga ko‘ra, elektrotexnika, avtomobilsozlik, farmatsevtika va oziq-ovqat sanoatida 1 tonna energiya sarfiga to‘g‘ri keladigan qo‘shilgan qiymat kimyo, qurilish materiallari, to‘qimachilik tarmog‘idagidan 15-20 barobar yuqori. Shu bois, ushbu sohalarida resurslarni tejash, kam energiya sarflab, ko‘p qo‘shilgan qiymat olayotgan tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratiladi. Energiya iste‘moli yuqori bo‘lgan 400 ta yirik sanoat korxonasi energiya auditdan o‘tkazilib, tejamkor texnologiyalar joriy qilinadi.

Davlat dasturidagi maqsad va yo‘nalishlar BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasining barcha yo‘nalishlariga muvofiq keladi. Unda 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o‘shirish kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, shuningdek, byudjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash chora-tadbirlari belgilangan. Albatta, bu ko‘rsatkichlarning amaliy ijrosini ta‘minlash kambag‘allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo‘ladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yangi sifat bosqichiga olib chiqish orqali 2025-yilda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 40 million so‘mdan oshirish ko‘zda tutilmoqda. Buning uchun iqtisodiyotning muhim tarmoqlari, jumladan, sanoatni 6,1 foiz, bozor xizmatlarini 14,5 foiz, qishloq xo‘jaligini 4,1 foiz va qurilish ishlarini 14,2 foiz, asosiy kapitalga o‘zlashtiriladigan investitsiyalar hajmini 9,7 foiz, tovar va xizmatlar eksportini kamida 15

foiz o‘shirishni ta‘minlash maqsad qilingan. Ushbu ko‘rsatkichlar samarali bajarilishi, o‘z navbatida, joriy yilda inflyatsiya darajasi 7-8 foizdan, konsolidatsiyalashgan byudjet taqchilligi yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizdan oshmasligini ta‘minlashga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Sanoatni rivojlantirishda resurstejamkor iqtisodiy rivojlanish modeliga o‘tish orqali xomashyoni chuqur qayta ishlash tarmoqlari hajmini 2030-yilgacha 2,5 barobar oshirish va tarmoqda qo‘shilgan qiymat hajmini 45 milliard dollarga yetkazish maqsadidan kelib chiqib, 2025-yilda mos ravishda 5,5 foiz va 28,5 milliard dollarga erishish belgilangan.

Shuningdek, sanoatda texnologik mahsulotlar ulushi 25 foizdan 32 foizga va yangi turdagi mahsulotlarni o‘zlashtirish va mahalliyashtirish darajasi 2025-yilda o‘rtacha 60 foiz, 2030-yilgacha 65 foizga yetkaziladi. Sanoatning drayver sohalardan biri bo‘lgan to‘qimachilikda ip-kalavani qayta ishlash darajasini 62 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Ushbu vazifalar ijrosini ta‘minlash sanoat tarmoqlarida 2025-yilda 200 ming, 2030-yilgacha esa 2,5 millionta yuqori daromadli yangi ish o‘rni yaratish imkonini beradi.



Davlat dasturida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan, yer va suv resurslaridan tejimli foydalanishni ko‘zda tutuvchi qishloq xo‘jaligi sohasi samaradorligini oshirish vazifalari ham bor. Bu hozirgi global o‘zgarishlar, iqlim o‘zgarishi va aholi soni ortishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi butun dunyoda dolzarb masalaga aylangan vaziyatda juda muhim qarordir. Chunki mamlakatimiz aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz va sifatli ta‘minlash nafaqat ijtimoiy barqarorlik, balki iqtisodiy mustaqillikni ta‘minlovchi asosiy omillardan biri sanaladi. Ushbu maqsadga erishishda hududiy ehtiyoj va imkoniyatlarni hisobga olgan holda ilmiy asoslangan davlat siyosati, agroinfrastrukturamni modernizatsiya qilish hamda ekologik barqarorlikni ta‘minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Sohada eksport hajmini 2025-yilda 3,5 milliard dollarga yetkazish rejai 2030-yilgacha bo‘lgan davrda yiliga ushbu hajmini 10 milliard dollar va undan oshirish maqsadiga erishish uchun muhim ko‘rsatkich.

Prezidentimizning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksportib qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymat yaratish darajasini ta‘minlash borasidagi tashabbus va parrandachilikni yanada rivojlantirish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish, aholi bandligini ta‘minlash va kambag‘allikni qisqartirish vazifalariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Bu borada joriy yilda tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ming kilometr kanallarni beton qoplamaga o‘tkazib, suv tejoychi texnologiyalar gamrovini 1,6 million gektarga yetkazish hisobiga yiliga qo‘shimcha 2,5 milliard metr kub suvni tejashga erishilishi, shuningdek, irrigatsiya va melioratsiya tizimlari obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish orqali 390 ming gektar qishloq xo‘jaligi yer maydonining suv ta‘minoti yaxshilanishi belgilangan.

Tejamkorlik masalasida qurilish sohasidagi vazifalar muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, 2025-yil 1-avgustdan boshlab pishgan g‘isht ishlab chiqarishdan muqobil texnologiyalardan keng foydalanishga o‘tish maqsadida devorboq materiallardan (penoblok, gazoblok) keng foydalanuvchi qurilish tashkilotlariga “Shaffof qurilish” platformasida ustuvorlik berilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, 2026-yil 1-yanvardan boshlab pishgan va xom g‘isht ishlab chiqarishda yer qa‘ridan foydalanilganlik uchun soliq stavkasi 2025-yil uchun belgilangan stavkaga nisbatan 2 baravar oshirilgan holda qo‘llanilishi hamda 2027-yildan bosqichma-bosqich qo‘shimcha ravishda oshirilishi tejamkorlikka erishishdagi aniq qadam.

So‘nggi yillarda xizmatlar sohasiga talabning hududlarda ham ko‘lami kengayib borayotgani bu sohani yanada rivojlantirishni talab qiladi. Ushbu sektorni rivojlantirish bo‘yicha uch yil oldin qabul qilingan katta dastur bugun o‘z natijasini berib, qo‘shimcha 1,5 million aholi servis sohasida doimiy daromadga ega bo‘ldi. Xizmatlar 2018-yildagi 19 milliarddan 65 milliard dollarga yoki 3,5 barobar o‘tdi. Shu bilan birga, so‘nggi

standartlarga asoslangan ishlab chiqarishni keng joriy etish lozim.

Joriy yilda umumiy ishlab chiqarish va infratuzilma loyihalarining 15 foizi “yashil” yo‘nalishga asoslangan bo‘lsa, 2027-yilda bu ko‘rsatkich 30 foizga, 2030-yilga kelib esa 55 foizga yetkazilishi rejalashtirilmoqda. Bu ko‘rsatkichlar milliy strategiyaning “yashil iqtisodiyot” blokida belgilab berilgan va xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlikda amalga oshiriladi. Mazkur loyihalarni moliyalashtirish uchun Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Jahon banki hamda boshqa nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda 300 million dollar miqdorida moliyaviy resurslar jalb etilishi ko‘zda tutilgan. Bu esa “kam uglerodli” ishlab chiqarish texnologiyalariga o‘tish imkonini kengaytiradi.

Energetika majmualarini barpo etish jarayonida joriy etilayotgan o‘zgarishlar mahalliy sanoat uchun ham yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, 4 milliard dollarga teng bo‘lgan uskuna va butlovchi qismlar mamlakatimizda ishlab chiqarilishi mo‘ljallangan. Bu orqali yirik infratuzilma loyihalarida “yashil komponent” ulushi hozirgi 25 foizdan 31 foizgacha oshiriladi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki mahalliy ishlab chiqaruvchilarning xalqaro standartlarga mos mahsulotlar yaratish salohiyatini ham mustahkamlaydi.

Oxirgi yillarda ekologik muvozanatni tiklash maqsadida “Yashil makon” umummilliy harakati keng ko‘lam kasb etmoqda. Har yili mamlakat bo‘ylab 200 million tup daraxt ekilishi ushbu tashabbusning asosiy ko‘rsatkichlaridan biridir. 2021-2024-yillar oraliq‘ida 698 ta yangi bog‘ va 316 ta zamonaviy jamoat parki ochildi. Orolbo‘yi hududida ekologik holatni tiklash doirasida 2 million gektardan ortiq maydonda butazorlar barpo etildi. Bu esa Orol fojiasi oqibatlarini yumshatishda ham muhim omil bo‘lmoqda.

Joriy yilda ko‘chat yetishtirish jarayonini ilmiy yondashuv asosida amalga oshirish maqsadida 18 ta yangi o‘rmon xo‘jaligi tashkil etiladi. Bu xo‘jaliklarda “ilm — loyiha — amaliyot” tamoyili asosida genetik seleksiya ishlari, urug‘ laboratoriyalari, “onalik” plantatsiyalar va intensiv tadbirlar uchastkalari faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

Shuningdek, joriy yil yakuniga qadar 123 million tup ko‘chat tayyorlanadi va yangi “Yashil olam” onlayn platformasi orqali aholiga ularni xarid qilish imkoniyati yaratiladi. Ekologik qadriyatlarini amalda qo‘llab-quvvatlagan tadbirkorlik subyektlari uchun ham alohida e‘tibor berilmoqda. Endilikda o‘z hududida daraxt ekkan, ishlab chiqarish jarayonida ekologik toza texnologiyalar va materiallardan foydalanigan korxonalar “yashil tadbirkor” maqomini oladi. Bu maqom tadbirkorlar reytingida oqiboga olindi va ularning xalqaro bozorlarga chiqishida yengilliklar taqdim etiladi.

Bundan tashqari, “yashil sertifikat” orqali xorijiy bozorlar bilan ishlashda ustunliklar yaratiladi, marketing va moliyaviy ko‘mak mexanizmlari yo‘lga qo‘yiladi.

O‘zbekiston “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish yo‘lida aniq qadamlar qo‘ymoqda. Bu faqatgina davlat siyosati emas, balki har bir fuqaro, har bir ishlab chiqaruvchi, har bir jamoat tashkilotining ongli harakati orqali amalga oshishi mumkin. Tabiatni asrash, resurslarni avaylash va yangi texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot qurish barqaror kelajak sari qadamdir. “Yashil iqtisodiyot” — kelajak iqtisodiyoti. Bu yilgi sa‘y-harakatlar mamlakatimizning ekologik barqarorligi, iqtisodiy rivojlanishi va jahon hamjamiyatida munosib o‘rin egallashiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning “yashil” taraqqiyotga oid qat’iy siyosati nafaqat ekologik xavfsizlik masalasi, balki kelajak avlodlar uchun qulay yashash muhitini yaratish, global miqyosda raqobatbardosh bozor ishloqchisiga aylanish yo‘lidagi strategik yo‘nalishdir. Davlat tomonidan yaratilayotgan sharoitlar, xalqaro moliyaviy ko‘mak va fuqarolik jamiyati ishtiroki bu maqsadlarga erishishning eng muhim poydevoridir.

Davlat dasturi ijrosini ta‘minlash esa “yashil iqtisodiyot” ko‘lamini kengaytirish, atrof-muhitni asrash va mamlakatimizdagi ekologik holatni yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Albatta, bu boradagi ishlarni samarali amalga oshirishda deputat va senatorlar, barcha darajadagi davlat xizmatchilari, fuqarolik jamiyati institutlari va fuqarolardan har bir vazifaga mas‘uliyat bilan yondashish talab etiladi.

Boshlanishi 1-betda

Yoz oylaridagi yuqori haroratga endi ko‘nikib ulgurayotganimizda, nisbatan salqin keladigan bahor fasli ham bu yil ancha isigani, mart va aprel oylari deyarli yog‘ingarchiliksiz o‘tgan kuzatilmoqda. Ayniqsa, may oyiga xos bo‘lmagan 40 va undan yuqori darajadagi issiq harorat tabiat kabi yurtdoshlarimizni ham bir oz esankiratib qo‘ydi. Oldinroq “O‘zgidromet” tomonidan shu yilning 14-16-may kunlari yurtimizga issiq havo oqimi kirib kela boshlashi va harorat 41 darajagacha ko‘tarilishi mumkinligi e‘lon qilinib, mas‘ullar tomonidan qator ogohlantirish va tavsiyalar berildi.

Shu kunlarda yana shunga o‘xshash xabarlar e‘lon qilinyapti. Unga ko‘ra, joriy hafta havo harorati ko‘tarilishda davom etadi va yurtimizning katta qismida issiq harorat kuzatiladi.

Ammo bunday yuqori harorat may oyi uchun xos emasligini nafaqat yurtdoshlarimiz, balki mutaxassislar ham ta’kidlamoqda. Ular Toshkentda kuzatilgan 49 yillik havo haroratini tahlil qilgach, shunday xulosa berishdi. Aniqlanishicha, harorat bilan bog‘liq me‘yoriy qiymatlar o‘tgan yillardagidan bir necha daraja yuqoriroq.

— Ko‘p yillik kuzatuvlar tarixida faqat 2021-yilda yurtimizning shimoli-g‘arbiy hududlarida bunday harorat kuzatilgan, o‘shanda ham cho‘l hududlarda may oyida harorat 45 darajagacha yetgan, — deydi O‘zgidromet mutaxassisi Husan Tursunov. — Tahlil natijalari Toshkent shahrida may oyi davomida harorat rejimida iqlimiy o‘zgarishlar fonda sezilarli o‘shish kuzatilayotganini ko‘rsatmoqda. Xususan, Toshkent shahrida 1975-2024-yillar mobaynida may oyidagi maksimal haroratlari odatda 33-39 daraja oralig‘ida bo‘lgan. Eng yuqori havo harorati 1986-yilda 38,7 daraja va 2004-yilda 38,6 darajada qayd etilgan. Ammo ko‘rsatkichlar oxirgi o‘n yillikda (2014-2024-yillar) izchil oshib borayotgani yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Bu holat iqlim o‘zgarishlari jarayonlari ta’sirida haroratning yuqorilash tendensiyasi kuchayib borayotganidan dalolat. Bunday dinamik harorat o‘zgarishlari agrotexnik ishlar, suv resurslari muvozanati va aholi salomatligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatishi

mumkin. Shu bois, vaziyat iqlim barqarorligi va ekologik xavfsizlikni ta’minlash borasida tizimli choralar ko‘rishni taqozo etadi. Xususan, atrof-muhit monitoringi, iqlimiy prognozlar aniqligini oshirish va haroratning keskin o‘zgarishlariga tayyorlik choralarini kuchaytirish zarurati ortib bormoqda.

Quyosh faollashishda davom etyapti

Shunday qilib, joriy yilning 16-may kuni yurtimizda sezilarli issiq harorat kuzatildi. “O‘zgidromet” jazirama issiq poytaxtda 17-may kuni ham davom etishi, yakshanba kuni esa harorat 10 darajagacha pasayishi mumkinligini e‘lon qilgandi. Bunga Quyoshda yilning eng yirik yorug‘lik portlashi sodir bo‘lgani ta’sirida 16-may kuni kuchli magnit bo‘ronlari kuzatilishi haqidagi xabarlar ham qo‘shildi.

Magnit bo‘ronlari yil sayin jiddiy muammoga aylanib boryapti. Avvallari bunday xabarlarini ehsitsak-da, uncha-buncha odam uning ta’sirini o‘zida sezmasdi. Balki bu holat yil davomida juda kam, asosan, yozning jazirama issiq kunlaridagina takrorlangani bois. Hozir bo‘lsa, yilning istalgan vaqtda magnit bo‘ronlari “hujumi” e‘lon qilinadi va hatto sog‘lom odamlar ham ahvolidagi salbiy o‘zgarishlarni his etmoqda. Keksa yoshdagi, qon bosimi yuqori, surunkali kasalliklari bor, ob-havo o‘zgarishlariga ta’sirchan odamlarning holati haqida-ku, aytmasa ham bo‘ladi.

Bundan bir necha yil oldin O‘zFA Astronomiya instituti katta ilmiy xodimi Chori Sherdonov bilan suhbat qilganimda, u magnit bo‘roni hodisasi Quyosh chaqnashi tufayli yuzaga kelishi, chaqnashlar qancha ko‘p bo‘lsa, hodisa shuncha tez takrorlanishini tushuntirgandi. Afsuski, kuzatuvlarga ko‘ra, Quyosh faolligi maksimumga qarab ketmoqda va bu chaqnashlar oshib borishidan dalolat. Buning ta’sirida yaqin yillarda magnit bo‘ronlari ham tez-tez kuzatilishda davom etadi.

Ba’zan tabiat insoniyatning unga ko‘rsatgan salbiy ta’siriga shu tariqa javob qaytaryapti degan gaplarni eshitib qolamiz. Agar hissiyotga berilmay, ilmiy jihatdan olib qaralsa, haqiqatan bugun biz duch kelayotgan iqlim o‘zgarishlari va global isish hodisasi nafaqat tabiiy jarayonlar, balki bevosita inson

omili ta’sirida yuzaga kelib, atmosferaga chiqarilayotgan zaharli gazlar, chiqindilar sabab sayyoradagi tabiiy issiqlik muvozanati izdan chiqayotgani ko‘rinadi.

Ya’ni umumiy havo harorati tobora me‘yoriidan oshib, global isish tomon

Bu global isishning yagona salbiy oqibati emas. Iqlim o‘zgarishlari allaqachon suv tanqisligi, ekotizimlar zaiflashuvi, qum va chang bo‘ronlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishda muammolarni yuzaga



ketyapti. Ma’lumotlarga ko‘ra, global isish sayyoradagi umumiy haroratning uzoq muddatli isish hodisasi bo‘lib, karbonat angidrid (CO2) va havoni ifloslantiruvchi boshqa moddalarning atmosferada to‘planib, quyosh nurlarini o‘zlashtirganda sodir bo‘ladi. Mazkur isish tendensiyasi uzoq asrlardan beri davom etayotgan bo‘lsa-da, so‘nggi yuz yilda qazib olinadigan yoqilg‘i yonishi, aholi soni ortishi, shaharlar rivojlanishi va insonlarning atrof-muhitga ta’siri kuchayishi oqibatida uning sur’ati sezilarli oshdi.

Tabiiy yoqilg‘i yonishi va boshqa omillar ta’sirida atmosferaga zaharli gaz chiqarilishi global isishning asosiy sabablaridan bo‘lgan “issiqxona effekti”ni yuzaga keltiradi. Zaharli gazlar esa inson omili ta’sirida chiqariladi. Yerning me‘yoriidan ortiq qizishi natijasida sutka mobaynida eng yuqori va eng past harorat orasida kam farq bo‘ladi. Bunday sutkalik issiqlik keskin isish hodiasini keltirib chiqaradi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2100-yilga borib, “issiqxona effekti” oqibatida global yalpi ichki mahsulot 20 foizdan ortiqqa pasayishi mumkin.

keltiryapti. Ya’ni bularning barchasi bir-biriga bevosita bog‘liq. O‘zgaruvchan ob-havo salomatlik uchun ham jiddiy xavfga aylangan.

Toshkentda ko‘tarilgan chang bo‘roni

Ibn Sino bobomiz inson salomatligi uchun eng katta xavflardan biri chang ekanini aytgan. Ifloslangan havodan nafas olish bugun biz uchun odatiy bo‘lib qolgan xavotirli. Uy yoki ishxona derazasidan qarab, Toshkent shahri havosi yana changli ekanini aytishga ko‘nikib qoldik. Ammo buni odatiy qabul qilolmayapmiz, qilmaymiz ham. Chunki bu zararli havo salomatligimiz uchun xavfli ekanini, unga qarshi jiddiy choralar ko‘rilishi kerakligini yaxshi bilamiz.

Yana o‘sha iqlim o‘zgarishlari ta’siriga qaytishga majburbiz. Yuqorida aytilganidek, yurtimizda kuzatilayotgan may oyidagi me‘yoriidan ortiq issiq harorat boshqa muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. 16-may kunidagi issiq harorat ketidan 17-may kuni

poytaxtimiz va yurtimizning ayrim hududlarida shamol tezligi kuchayib, chang-to‘zon hodisasi kuzatildi. Tashqaridagi qop-qora changni ko‘rgan odam o‘zini arab davlatlaridagi cho‘l yoki havosi doimiy ifloslanib turadigan Hindistondegidek sezishi mumkin edi. Ammo bu borada ulardan ham o‘tdik. 17-may kuni kechki soatlarda e‘lon qilingan xabarlarga ko‘ra, chang-to‘zon ko‘tarilishi ortidan O‘zbekiston poytaxti havosi eng iflos shaharlar ro‘yxatida 1-o‘ringa chiqib qoldi. Toshkentda havo ifloslanishi o‘ta xavfli darajaga yetib, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti belgilagan sutkali o‘rtacha me‘yordan 33 barobar yuqori ekanini qayd etildi.

Bunday sharoitda ko‘pchilik uyda o‘tirishni afzal ko‘rgani yaxshi. Ammo bu bilan ham zararli havodan himoyalana olmaslik mumkin. Shu bois, mutaxassislar amal qilish kerak bo‘lgan qator tibbiy tavsiyalarni berib bordi, odamlar ham unga befarq qaramadi, albatta. Gap shundaki, noqulay ob-havo sharoiti inson omiliga bog‘liq bo‘lmagan holda istalgan vaziyatda yuzaga kelishi mumkin. Uning oqibatlariga qarshi kurashishdan oldin esa himoya choralarini ko‘rish to‘g‘ri yechim bo‘ladi.

Chang bo‘roni tabiiy hodisa ekanini bilsak-da, uni yuzaga keltiruvchi omillar ham yo‘q emas. Aniqlik, bu borada mutaxassislar izohlari ko‘pchilik uchun qiziq. Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti Botir Xolmurotovning fikricha, Toshkentda chang bo‘roni yuzaga kelishiga bir necha omil sabab bo‘lgan. Eng asosiy sabab salqin shimoliy havo oqimi va janubdan kirib kelayotgan issiq havo massasining to‘qnashuvi, bosimning no-

odatiy ortishi va keskin shamol kuchayishidir. Bu havo massalari o‘rtasidagi keskin harorat farqi kuchli shamolni keltirib chiqargan.

— Kuchli shamol, o‘z navbatida, qurigan tuproqdan va ochiq yer maydonlaridan chang zarrachalarini ko‘tarib, havo muhitiga tarqatdi, — deb yozadi Botir Xolmurotov. — Natijada shaharning turli nuqtalarida ko‘rish masofasi qisqarib, nafas olish qiyinlashgan. Ob-havo sharoitini o‘rganuvchi ekspertlar bu holatni “frontal to‘qnashuv” deb ataydi. Ya’ni sovuq va issiq havo massalari bir joyda to‘qnashganida atmosfera beqarorlashib, kuchli shamol va chang ko‘tarilishi ehtimoli keskin ortadi. Aynan shu jarayon Toshkentda bulutli osmon, chaqmoq va qisqa muddatli yog‘ingarchilik bilan birga kechdi.

Kuchli shamol talafotsiz o‘tib ketmasligi aniq. Bo‘ron oqibatida 17-may kuni Toshkent shahrida 8500 ta va Toshkent viloyatida 10 ming 300 ta iste’molchi elektr ta’minotidan vaqtincha uzilib qolgan. Energetika vazirligi xabariga ko‘ra, ayrim joylarda chiroq avariyaaviy o‘chirilgan, ayrim joylarda esa xavfsizlikni ta’minlash maqsadida dispetcherlar tomonidan o‘chirib tutilgan. Muayyan vaqtdan so‘ng maxsus brigadalar tomonidan nosozliklarni bartaraf qilish hamda elektr ta’minotini qayta tiklash choralarini ko‘rildi. Noqulay ob-havodan so‘ng shahar bo‘ylab shamol va chang bo‘roni oqibatlarini bartaraf etish bo‘yicha boshqa ishlar ham faol amalga oshirildi.

“Yashil” yechimlar

Oldimizda yoz fasli turibdi. Bu mavsum o‘tgan yillardagi kabi anomol issiqdan xoli bo‘lmasligiga kafolat yo‘q. Ya’ni iqlim o‘zgarishlari faollashishda davom etmoqda, global isish ham moslashishimiz kerak bo‘lgan hodisalardan biriga aylanib ulgurdi. Ularning salbiy oqibatlariga o‘zimiz guvoh bo‘lib turibmiz.

Yurtimizda iqlim o‘zgarishlari oqibatlariga qarshi kurashish, ekologik barqarorlikni ta’minlash, “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish asosiy vazifalardan biriga aylangani boisi shunda. Keyingi yillarda mamlakatimiz bo‘ylab “yashil” hududlar, qayta tiklanadigan energiya manbalarini ko‘paytirish, sohalarni energiya tejovchi texnologiyalar bilan modernizatsiya qilish, ekologik toza qishloq xo‘jaligiga o‘tish, ekologik tejamkor transport vositalaridan foydalanish harakatlari faollashib bormoqda.

Bu vazifalar davlat dasturida alohida belgilangan. Undagi barcha bandlar tarmoq va sohalarning uyg‘un “yashil” transformatsiyasini amalga oshirish, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va unga moslashish, aholining yashash sifatini yaxshilash, iqtisodiy o‘sishning yangi “yashil” rivojlanish modeliga o‘tish maqsadlarida birlashtirilgan.

Umuman, bu borada belgilangan vazifalar juda ko‘p. Ularni amalga oshirish natijalari esa amaliyotda ko‘rinishi kerak. Chunki bugun havoning nisbatan isishi, bir ozgina ko‘p “terlashimiz” oddiy hol bo‘lmay qoldi. Modomiki, har birimiz buning ekologik muammo ekanini anglayotgan ekanimiz, demak vaziyatga jiddiy munosabatda bo‘lish lozimdir.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Ekologiya

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi tashabbusi bilan Orol dengizining qurigan tubida o‘tkazilayotgan tajriba — sho‘rlanish darajasi yuqori sharoitga moslasha oladigan o‘simlik turlarini aniqlashga qaratilgan loyiha haqida bir yil avval ham maqola tayyorlagan edik. Mahalliy olimlarimiz sa’y-harakati bilan vaqt o‘tib tajriba kutilganidan ham yuqori natija berdi.

— Orol dengizining qurigan maydoni 6 million gektarni tashkil etadi, — deydi akademik Zinoviy Noviskiy. — U yerdan yiliga 150 million tonna tuzli chang havoga ko‘tarilib, 1000 kilometr gacha uchib boradi. Havodagi chang va tuz turli kasalliklar keltirib chiqarayotir. Albatta, ushbu muammoga yechim topish maqsadida necha yillardan buyon tinimsiz mehnat qilinmoqda. Orolqumda har yili 100 ming gektar yerda himoya o‘rmoni — “yashil qoplamalar” barpo etilmoqda. Shu maqsadda o‘tgan yildan yangi turdagi Arundo donaks o‘simligini ekishni boshlagan edik. Natija quvonarli bo‘ldi. Gap shundaki, ushbu o‘simlik qurg‘oqchilikka chidamliligi bois, cho‘l sharoitida ham o‘sa oladi. Lekin bizga ma’qul bo‘layotgani — uning tez ko‘karish xususiyatiga egaligi. Ekish texnologiyasi ham o‘ziga xos: yerga ko‘chat o‘rniga ildiz kurtaklari qadaladi. O‘simlik tuzli shamollarning ham oldini oladi.

OROLQUMDA NOYOB O‘SIMLIK — ARUNDO DONAKS

U SHO‘R TUPROQQA QANDAY MOSLASHADI?

Ma’lumotlarga qaraganda, Arundo donaks ko‘p yillik qamish bo‘lib, “gigant qamish”, “karrizo”, “arundo”, “ispan qamishi”, “kolorado daryosi qamishi”, “yovvoyi qamish” deb ham ataladi. Ushbu o‘simlik odatda 6 metrgacha o‘sadi. Qulay sharoitda esa bo‘yi 10 metrdan oshishi mumkin. Kulrang-yashil, qilichsimon barglari poyaga navbatma-navbat joylashadi. Uzunligi 30-60 santimetr gacha, eni 2-6 santimetr bo‘ladi. Umuman olganda, o‘simlik oddiy qamishga o‘xshaydi. O‘simlik yozning oxirida urug‘siz yoki siyrak urug‘li vertikal tuklar bilan gullaydi. Tuproqqa 1 metrgacha chuqur kirib boradigan tugunli, yer osti tolalari orqali vegetativ ravishda ko‘payadi. Uzunligi 5 santimetrdan kam bo‘lgan poya va ildizpoya bo‘laklari bitta tugun bo‘lib, turli sharoitda oson unib chiqishi mumkin.

Iyun-iyul oylarida yangi poya va barglar hosil qiladi. Iyul oyining oxiridan boshlab pastki barglar quriy boshlaydi. Qurish kuzda tezlashadi. Qishda, ya’ni past haroratlarda ulkan qamish o‘sishidan to‘xtaydi. Bahordan qayta o‘sa boshlaydi.

— Ushbu loyiha Orol dengizining 600 ming gektar maydonida sho‘r va nam tuproqlarda o‘rmonzorlar barpo etish maqsadida tajriba



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



sifatida sinovdan o‘tkazilmoqda, — deydi akademik Zinoviy Noviskiy. — Shunday qilib, endi dengiz tubida saksovol, qandim kabi cho‘lga chidamli o‘simliklar qatoriga Arundo donaks ham qo‘shildi. E’tiborlisi, Arundo donaks tabiatan namni xush ko‘rsada, sho‘r tuproqqa ham tez moslasha oladi.

Dala tadqiqotlari davomida o‘tkazilgan tuproq ishlari natijasida sinov hududida yer osti suvlari taxminan 2 metr chuqurlikdagi aniqlandi. Arundo donaks ildizlari birinchi yilning o‘zidayoq o‘sha suvga yetib bordi. Bu esa o‘simlikning tez tutib, barqaror o‘sishida juda muhim.



XIX asrda drenaj kanallarida eroziyani nazorat qilish uchun O‘rta yer dengizidan Kaliforniyaga olib kelingan Arundo donaks keyinchalik manzarali o‘simlik sifatida Shimoliy Amerikaning iliq qurg‘oq yerlarida, chuchuk suvlarida tabiiy holda ko‘paya boshlagan. U Janubiy Amerika va Avstraliyada ham keng tarqalgan. Shuningdek, u dunyodagi quruqlikda eng tez o‘sadigan o‘simliklardan biri. Kuniga deyarli 10 santimetr o‘sadi.

Orol dengizi qurigan tubining 1 gektaridan 5 tonna zararli tuzlar atmosferaga ko‘tarilib, atrofga va inson salomatligiga ta’sir ko‘rsatadi. Bir dona saksovol 4-10 tonna qumni ushlab qoladi. Endilikda Arundo donaks ham saksovol, cherkes, jing‘il kabi chang-to‘zoni ushlab, namlikni saqlaydi. Ya’ni foyda keltirishni boshlaydi.

Minajatdin QUTLIMUROTOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

**USHBU DASTUR DOIRASIDA
5 TURDAGI YANGI IJTIMOYIY XIZMAT
KO'RSATILISHI YO'LGA QO'YILADI**

xarajatlarining bir qismi vaucher asosida qoplab beriladi. Vaucher qiymati Ijtimoiy himoya milliy agentligiga ushbu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'lar va Ijtimoiy himoya davlat jamg'armasi hisobidan hukumat tomonidan belgilangan miqdordagi subsidiya shaklida to'lanadi hamda vaucher berish va uning qiymatini to'lash "Yagona milliy ijtimoioy himoya" axborot tizimidagi "Oila hamkori" platformasi orqali amalga oshiriladi.



Lutfulla SUVONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



TURK XOQONLIGI

Buyuk Turk xoqonligining kumbotardagi qanoti — Gʻarbiy turk xoqonligining 150 yildan ortiq boshqaruvi chogʻida oʻnlab xoqonlar taxtga oʻtirgan. Ular orasida Istami yabgʻu (568-576), Tardu (576-603), Sheguy (611-618), Tun yabgʻu-xoqon (618-630), Ashina Ulugʻ (641-647) xoqonlik davrini inʼkeny yozgan. Soʻnngi xoqonlardan biri Ashina Sin boʻlib, uning 740-yildagi vafotidan keyin boshqaruvi Turgash xoqonligi (699-756) qoʻl ostiga oʻtgan. Gʻarbiy turk boshqaruvchilari dastlab "jabgʻu" yoki



Ulkani kengliklardagi o'nlab o'lkalarni
egallab, u yerlarda yashaydigan turkiylar va
boshqa elatlarni yagona yalov ostida to'plagan
Turk xoqonligi o'zga el-uluslarni dastlab, til
va yozuviga, yuz yillardir asrab kelayotgan
qadriyatlariga teginmay, bag'rikenglik
ko'rsatdi. Shuning uchun xoqonlik qo'l ostidagi
kavkazliklar, fin-ugorlar, slavyanlar, sarg'diylar
va boshqa el-uluslar tez orada turkiylar bilan
yanada yaqinlashib, ushbu saltanatning qulabi-
yashnashiga ulushini qo'shadi. Buyuk ipak
yo'lining har ikkala tarmog'i — Sharqiy
Yevropadan Xitoy va Uzoq Sharqqa eltuvchi
shimoliy tarmoq hamda O'rta yer dengizidan
Eron, Hind o'lkasi, Tibet va Xitoyga tutashuvchi
janubiy tarmoq yo'llari tinchligi, karvonlar bu
yo'llar bo'y-lab emin-erkin o'tishiga sharoit
yaratildi. Ellararo savdo-sotiq yurituvchi



cho'g'diyalar turk cho'shinalari qurshovida Xitoy va Yevropa, Hind o'lkasi va Kungay Sibir o'rtaqidagi qatnay boshlaydi, Turkiy til yonida sug'd tili ham Turki xoqonligining ishi yuritish va yozishmalarida ulik borish tiliga aylanib, bu tillarda o'nlab bittiktoshlar yaratildi, hujjatlar tuzildi, tangachalar bostirildi. Xoqonlar shunga o'xshash bag'rikenglik yondashuvini boshqa el-uluslar uchun ham qo'llagan bo'lib, baqriy, eski xorazm, hind, pahlaviy (o'rta fors) tili ko'plab yozma yodgorliklarning bir bo'lagi xoqonlikka tegishli ekanini buni ko'rsatib turibdi.

Bumin va Istami izdoshlari Muqan xoqon (553-572), Tardu yabud'u (576-603) boshqaruvini cho'g'ida xoqonlik yanada yuksalib, davlat ikkiga qanotga taqsimlandi. Qadimgi turk to'a-tuzuklari bo'yicha Buminning avlodlariqa O'r xun o'lkasi (Mo'g'uliston), Kungay Sibir, Uzoq Sharq, Shimoliy Xitoy, Oltoy meros qilib berildi. O'r xun ushbu siyosiy birlikning o'chog'i bo'ldi. Turon — Turkistonning o'zak yerlari — Amudaryo-Sirdaryo oralig'i, Yettisu, Sharqiy Turkiston, Xuroson, Qora dengiz bo'ylari, Shimoliy Kavkaz, Volga — Aralbo'y Istami avlodlariqa berilib, boshqaruv markazi — o'rda avval Yulduz vodiysi (Sharqiy Turkiston), keyinchalik Suyab (Yettisu), Taroz va Choch (Toshkent) o'lkasidan o'rindi.

Shu yo'sinda Bumin izdoshlari boshqargan qanot kunchiqardagi Sharqiy turk xoqonligi (552-630; 682-744) va Istami izdoshlariga tegishli kunbotardagi qanot G'arbiy turk xoqonligi (568-740) deb ataladigan sulolalar o'rtaga chiqdi. Aslida, ular bir butun bo'lib, bitta saltanatning

ikkiki qanotini edi. Ikkala qanotning chegarasi Oltoy tog' lari kunigayida belgilandi. G'arbiy turk xoqonligi Turon ellarining o'zagi — Amudaryo-Sirdaryo oraliği, Yetissuv, Sharqiy Turkiston, shuningdek, Kobul, Kashmir, Xurosonda birin-ketin o'z boshqaruvini o'rnatgan ko'plab siyosiy uyushmalar uchun tamoli toshi bo'ldi. Shuning uchun o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, uyr' uqlar va turkmanlar xoqonlikning bu qanotiga to'g'ridan to'g'rida o'z o'z davlatchiligi o'laroq qaraydi. Shuningdek, ular uchun Sharqiy turk xoqonligiga tegishli VIII asr boshlarida o'rnatilgan Tuvunyuq, Kultegin, Bilcha xoqon va yana o'nlab bitiktoshlar deyarli barcha turkiy el-ulusalr tilining ilk o'rnaklari o'laroq ardoliqdir.

Turk xoqonligi sharqiy qanotida El xoqon hukmronligi davom etayotgan kezlarda Istaminig' evarasi Tur yabg'u (618-630) boshqaruvidagi G'arbiy xoqonlik chegarasi kunbotar va janubi-g'arbda Sharqiy Yevropa dashtlari, Shimoliy Kavkaz, Gurgun, Marv, Hind daryosi qirg'oqlari va Xurosonning ulkan bir bo'lagini qamrab oldi. Uning yutuqlaridan yana biri 627-628-yillarda "shad" unvonli o'zli boshchilikdagi turk qo'shinlarining Janubiy Kavkazga yurish qilib, sosoniylar qo'shinini yengib, Tiflis shahrini qo'lg'a kiritganidir.

Tun yabg'u xoqonlik dovrug'ini yanada kuchaytirish uchun Chochning shimolidagi Mingbuloq (xit. Syansyuan) mavzesiga ko'chirdi. Tun yabg'u 618-619-yillarda yirik qo'shin bilan Eronga uchta yo'nalish — Hindikush, Gurgon va Kavkazbo'y bo'ylab yurish uyushtira boshlab, Gurgon, Ray va Isfahon shaharlarini egalladi. U Sharqiy Eron va Afg'onistonda qo'lga kiritilgan viloyatlar boshqaruviqa "eltabar" va "tudun" unvoniga ega noiblar tayinlaydi.

G'arbiy turk xoqonligi o'z qo'li ostidagi o'lkalarni 2 ta yo'l — usul bilan boshqarishini yo'lga qo'yadi. Birinchisi, boshqaruvchi o'z sulolasiga ega o'nlab voha hukmdorliklarining 10 ta boshqaruviga erkinlik beriladi. Xoqonlar ulardan ayrimlarini o'ziga kuyov qilib, "tudum" deb ataluvchini noiblar orqali ularni nazoratda tutadi va soliqlarni yig'ib oladi. Ikkinchisi, ayrim o'lkalarga boshliq etib to'g'ri riydan to'g'ri xoqonning o'g'illari va jivanlari tayinlanadi.

Amudaryo — Sirdaryo oraliq'i va uning yaqin tegralari ikkala boshqaruv tizimi o'rtaliq.
Xorazm, Sug'd, Marvda yerli sulolalar o'z ichki ekerlikliga ega bo'lsa, Choch, Farg'ona, Buxoro, To'xoriston va Kobulistoni xoqonlikka aloqador sulolalar boshqaradi. Yozma manbalar va tangalar Toshkent vohisida Choch teginlari (605-750), Choch tudunlari (640-750), Farg'ona ashina sulolasi (640-810-yillar), buxoruxudotlar (Bidan va uning izdoshlari — 570-730), To'xoriston yabg'ulari (620-750), Kobuliston teginshohlari (640-840) to'g'ridan to'g'ri G'arbiy xoqonlikka borib taqalishini ko'rsatadi.

G'arbiy turk xoqonlariga kuyov bo'lgan yerli – mahalliy boshqaruvchilar birmuncha yuqori mavqeni egallagan. Xoqonning qizlari "xotun" (malika) deb atalib, xoqonlik ular orqali qaram hukmdorlarni nazoratda tutgan. 590-610-yillarda Samarqandni boshqargan 2 ta boshqaruvchi Tardu, Tun yabg'u kabi xoqonlarga kuyov bo'lib, qo'shni hukmdorliklar ustidan nazorat o'rnatganiga xitoy yilnomalarida urg'u beriladi. Xoqonlarning qaram boshqaruvchilarga uzatilgan qizlarining saroyda o'rni yuqori bo'lib, Samarqand, Buxoro, O'tror, Chag'oniylar tashqiriga hukmdor va xotun tasvirlarini o'rinishi, aylaridagi ayrim tamlar "xotun" unvanini yozilgan buning yorqin dalillidir. Samarqand shahri yaqinidagi Kofirqal'a yodgorligidan topilgan loy mihurlarda ayol tasviri va "xotun" so'zi uchraydi. Xoqonlikning Chocho'da zarb etilgan tangalarida esa "xotun" xoqon bilan yonma-yon o'tirgani yoki ularning qo'shaloq tasviri tushirilgan, yoki bo'lmasa, xoqon yonidagi ayol qo'lda bola ushlab o'tirgani – bularning barchasi qadimgi turk mifologik tushunchasidagi "Umay ona"ni eslatadi. Umay – eski turk inonchida jangchi – savashchilarni qo'riqlovchi, chaqaloqlar homiysi, yaratuvchi Tangridan berilgan qut-barakani keltirib beruvchi timsol deb tushunilgan. Demak, tangalarda xotun Umayga qiyoslangan.

O'z boshqaruvi markazlaridan biri o'laroq, Chochdagi Jabg'ukut va Xotunkat qo'ng'ir olinib qurgan G'arbiy turk xoqonligi bu yerda turib, o'z tanga-pullarini chiqara boshladi. Ularda G'arbiy xoqonlik boshqaruvchilariga tegishli "jabg'u'u", "jabg'u xoqon", "xoqon", "Turk xoqon", "Tun xoqon" o'rin oldi. Ishbora xaqon kabi ism va unvonlar "uq" oldi. Shunga o'xshab Farg'ona vodiysida chiqarilgan tangalarni "xoqon", "Jabg'u turk-xoqon" so'zlari bezadi. Qizig'i shundaki, Choch va Farg'oning turkiy boshqaruvchilari tomonidan bostirilgan tangalarada hukmdorning tashqi ko'rinishi (soch turgani, yuz va ko'z tuzilishi), tamg'asi deyarli bir xil.

Sug'd va Ustrushona (Jizzax) oraliq'ida
 chiqarilgan xoqonlik tangarlarida ham shunga
 o'xshashlik kuzatilib, ularda "Tardu xoqon",
 "xoqon va xotun" so'zlari uchraydi. "Tardu
 xoqon" so'zlari o'rin olgan tangarlar zarb etila
 boshlashi esa xoqonlikning ikki qanotga —
 Bumin va Istami avlodlariga ulush o'laroq
 berilgan chog'lardayoq yo'lga qo'yilgan bo'lsa
 kerak.

Gʻarbiy Turk xoqonlariga borib taqaluvchi sulolalarning Toʻxoriston — Baqtriya, Kobi va ategralariga, Xurosonda baqtriya, pahlaviy, eski hind yozuvlarida oʻz tangelarini chiqargani, tangelarda xoqonlikka xos “yabʼ ul”, “tegin”, “eltabar” kabi atqoq-unvonlar oʻrin olgani koʻzga tashlanadi. Ushbu tarixiy oʻlkalardan topilayotgan baqtriya tillari oʻnlab hujjatlarda qadimgi turkcha atamalar uchrashi, ayrim hujjatlar “xoqon boshqaruvi” chiqʻida... deb boshlanishi bu yerlarda xoqonlik boshqaruvi chekurildigini koʻrsatadi.

Burk xaqonligining deyarli ikki yuz yilga yaqin
tashkuriyotchi chog'ida Turun — Turkistonda tasviriy
san'a at yuksak cho'qqiga yetdi. Bir tomondan,
sariyotni devorlari o'sha kezlardagi boshqaruvchilar
hayotini, dovrulqo voqealarni, elning yashash
yo'sini va inonch tizimini ko'z-ko'z qilsa,
ikkinchisi tomondan, keng tog' yonbag'rida kishi
tasvirchi tushirgan balbal toshlar xaqonlar, qo'shin
boshliqlari, janglarda alplik ko'r'satgan jangchilar
uchun o'rnatilgan yodgorlik osarlari edi. Bu
davr sariy devoriy rasmlari tashdida Afrosiyob
(Samarqand) va Panjiket yodgorliklaridagi
tasvirlar o'zining turli-tumaniqli bilan ajralib
turadi. Ularda shohona to'y-ziyofatlarda, elchilar
va xaqonlik qaramog'ida hukmdorliklari
tomonidan keltirilgan sovg'a-salomlar tasviri
yetakchilik qiladi. Ushbu tasvirlarda uzun sochi
yo'si o'r'ilgan soch tarmakli, turkiylarga xos
to'n kiygan, qilich taqqan boshqaruvchilar, turli
marosimlarni bajarayotgan sog'diylar va boshqa
etnik vakillarni yonma-yon ko'rish mumkin.

Qisqasi, turonlik ellar, ayniqsa, o'zbek eli
o'rimshida Turk xoqonligi o'ziga xos o'rin tutib,
boshquruv markazlaridan biringa Chochdagi
yo'lshangani, boshquruvchi sulola – Ashina
xonadonining Chochi, Farg'ona, Buxoro va
To'xoristonda o'z boshqaruviga asos solgani,
xoqonlikning ilk tanga-pullari Choch, Farg'ona,
Samarqand va Surxon o'lkalarida zarb etilgani,
AFrosiyob, Tavkaqo'rg'on, Varaxsha kabi o'sha
kezlarning yo'lovchi devoriy rasmlari o'lkamiz
muzeylaridan jang onbani ko'rsatib turibdi.

G'aybulla BOBOYOROV,
tarix fanlari doktori,
professor



1

O‘zbek sahna san’ati darg’alarining ishini munosib davom ettirgan va o‘zi ham shunday sharaflı martabaga erishgan atoliq rejissyor, O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi, xalq artisti Bahodir Yo‘ldoshev hayoti qanchalik murakkab kechgan bo‘lmasin, undan qolgan boy madaniy meros taqdiriga avlodlarga nafaqat uzoq yillar, balki mangu xizmat qilish bitilganida

Rejissyor nomini har gal eshitganida ko‘z oldimda Olchinbek siyosati gavlalanađi. O‘rgan asrning 80-yillari boshida o‘zbekning yana bir katta rejissyori Shuhrat Abbosov ilk milliy serial — “Olovli yo‘llar” filmini suratga olgan va unda aytor, makkor hamda xiyonatkor kimsa obrazini Bahodir Yo‘ldoshev qoyilmaqom qilib ijro etgan edi. Ne tongki, hayoti davomida barmoq bilan sanarli kinofilmlarda rol ijro etgan buyuk rejissyor 10-11 yoshimdayoq mug‘ak tafakkurimga aktyor sifatida muhrlanib qoldi.

Agar u faqat aktyorlik bilan shug‘ullanganida ham o‘zbek kinosisda yuksak cho‘qqilarni zabt etardi. Negaki uning Muxtorov (“Tog‘dagi uchrashuv”), Sherzod (“Olmos kamar”), Sobirov (“Oshpaz”), Murodxon (“Dev bilan pakana”) va boshqa obrazlari kino ixlosmandlarining xotirasidan mustahkam o‘rin olgan. Lekin u boshqalarga imkon berdi. Imkon bo‘lganda ham rejissyor sifatida har bir yalt etgan iste‘dodni ilg‘ay bildi, yashirin iqtidorlarni kashf etdi.

Uni yaqindan bilganlar rejissyor ko‘p kitob o‘qishi, o‘y-xayoli va kechinmalarini qog‘ozga tushirib borish odati bo‘lgani, ommaviy axborot vositalari xodimlari va muxlislar bilan muloqotdan hech qachon o‘zini cherga olmaganı haqida ko‘p gapiradi.

Intervyularidan:

— San’atda odam o‘zi uchın ishlaydi kerak. Mana shu spektaklmi qo‘yganimizda, tomoshabinlar kelib, menga gul berishsa, olqishlashsa yoki shu spektaklim uchun unvon olaman degan fikr bilan ishlagan odamning spektakli o‘xshamaydi. Bu spektakl men uchun, mening do‘stlarim, tomoshabinlarim uchun. Tomoshabinlarni nihoyatda hurmat qilish, ularni sevish kerak. Chunki bir spektaklmi tomosha qilish uchun ikki soat vaqt ketadi. Odamning umri juda qisqa, ular shu qisqa umrining ikki soatini sizga, spektaklingizni ko‘rishga bag‘ishlaydi. Ularning vaqtini o‘g‘irlab bo‘lmag‘ur bir narsani qo‘yish — tomoshabinga xiyonat.

Bitiklaridan:

“San’at aslida xoslamiki, u hech qachon ommaniki bo‘lmagan. Asl teatr tarbiya ko‘rgan, o‘qimishi, san’atni tushunib qadrlaydiganlar uchun muhimroq. Teatr tarbiyalaydi, deyshidai, bu — yolg‘on! Teatr tarbiyalamaydi. Hech qachon kitob o‘qimagan, muzeyga bormagan odamlarni zo‘rlab teatrga olib kelib bo‘lmaydi. Ular san’atning qadriga yetmaydi. Chunki uning mohiyatini tushunmaydi. Shuning uchun ham bolsheviklar rahmasosining “san’at xalqnıkdir” degan shiomnaga gapi haqiqatdan mutlaq uzoq. Afkor ommaga san’at emas, birinchi o‘rinda non kerak. Ularga san’atning soyasi ham kifoya. Hech qaysi davrda Alisher Navoiy yoppasiga o‘qilmaydi. Hozir Muhammad Yusuf she‘rlarini yoddan aytib yozgan odamlar Rauf Parfi degan nomni eshitgan, xolos”.

2

1945-yili Samarqand viloyatining Kattaqo‘rg‘on shahrida tug‘ilgan Bahodir Yo‘ldoshev san’atning qattiq nonini tatigan, og‘ir yukini yelkasida ko‘targan, pastu balandidan mardonada o‘lgan ziyoli oilada kamol topdi. U bu yo‘lga tasodifan emas, balki ijodkorga osoyishta hayot begona ekanini bilgani holda kirgan iste‘dod egasi edi. Otasi Tursunboy Yo‘ldoshev teatrga sozanda, onasi Shirinxon Meliyeva esa

aktrisa bo‘lgan. Ayniqsa, onasi Kattaqo‘rg‘on teatriga direktor etib tayinlangach, aksariyat vaqti shu dargohda o‘tadigan bo‘ldi.

Sekin-asta spektakllarda yosh bolalar obrazini ijro etdi. O‘sha kezlari Zinnat Fatxullinning “G‘unchalar” pyesasi ancha dovruq qozongan edi. Shu asardagi personajlardan biri go‘dagini qutiga tashlab ketadi. Ana shu “tashlandiq bola” rolini Bahodir Yo‘ldoshev o‘ynagandi.

Uning ilk rejissyorligi ham bolaligidan boshlangan. Yettinchi sinflarda o‘qib yurgan kezlari Kattaqo‘rg‘on shahridagi madaniyat uyi huzurida ochilgan teatr studiyasida ilk bor Mixail Lermontovning “Maskarad” she‘riy dramasiıı sahnalashtirdi.

Intervyularidan:

— Teatrlar rejissyor tanlaganda, bu rejissyor bizga kerak emas, u qattiqqo‘l, ishini talab qiladi, kechikkani qo‘ymaydi, to‘yga ruxsat bermaydi deb turib olishadi. U qanday spektakl qo‘yishini nazarda tutishmaydi. O‘zlariga qulay rejissyorıı olishadi. Lekin o‘sha aktyorlar birorta tuzukroq rol o‘ynamasdan umrim o‘tib ketyapti-ku, nega teatr sohasida o‘qidim, faqat shu teatrga ishlab, to‘yga chiqish uchunmi deb o‘ylamaydimi? Bosh rejissyor nafaqat teatr taqdiriga, balki har bir aktyor taqdiriga mas‘ul, uning o‘sishiga, xalqqa tanilishiga javob beradigan odam.

Bitiklaridan:

“Ilm, ijod, umuman, go‘zallikning poyoni yo‘q. Agar poyoni bo‘lganida faqat bitta odam “Hamlet”ni sahnalashtirardi. Boshqa rejissyorlar esa bu haqda bosh qotirmasdi. Lekin voqeasi hammasi ma‘lum o‘sha yagona “Hamlet”ni yuzlab rejissyor yana boshqatdan yaratadi. Har biri turli nuqtayi nazardan yondashadi va o‘z Hamletini kashf etadi. Yoki Alisher Navoiy g‘azallaridagi bitta baytning bir necha xil sharhi bor. “Navoiyni tushunib bo‘ldim!” degan azamat bu dunyoda bormikan? Hazratning har bir g‘azali undan oldingi yozgan g‘azaliga javob bo‘lib keladi. Va keyingi g‘azali uchun savoligicha qoladi”.

3

Bahodir Yo‘ldoshev o‘rta maktabni tugatganidan so‘ng Toshkent teatr va rassomchilik



institutida rejissyorlik mutaxassisligi bo‘yicha tahsil oladi. Faoliyatini talabalik davridayoq, 21 yoshida O‘zbek davlat (hozirgi O‘zbek milliy) akademik drama teatri artisti sifatida boshlaydi. Yigirma sakkiz yoshida ushbu nufuzli teatrga bosh rejissyor va badiiy rahbar etib tayinlanadi. O‘zbek teatriga yangiliklar kiritish, uni yanada yuksaltirish niyati bilan ish boshlagan Bahodir Yo‘ldoshev Shilleming “Qaroqchilar”, L.Tolstoyning “Tirik murda”, Uyg‘unning “Abu Ali ibn Sino”, “Beruniy”, “Zebunniso”, S.Ahmadning “Kelinar qo‘zg‘oloni”, PQodirovning “Yulduzli tunlar” asarlarini sahnaga qo‘yib, madaniy jamoatchilik nazariiga tushadi.

Intervyularidan:

— Teatrga talaba bo‘lib kelganman va yarim yil rekviziti bo‘lib ishlaganman. Keyinchalik yoritguvchi bo‘lib. Teatr xodimining har kasbini o‘rganganman. Badiiy rahbar lavozimigacha xizmat qilganman. Keyin men ko‘chadan kelmaganim axir, men aktyorlar oilasidanman. Onam 40 yil teatr rahbari bo‘lgan va men teatrga katta bo‘lganman. Zamonaviy yoshlar bilan bog‘liq muammo shundaki, ular 17 yoshidan va faqat birinchi kursdan boshlab teatrmı o‘rganadi. Men esa ulardan farqli o‘laroq, bu yoshda ancha uqqan edim. 28 yoshga kelib esa mening ichki dunyom shakllangan edi. Aytadigan so‘zim bor edi va tajribali teatr arbobiga aylandim.

Bitiklaridan:

“Emishki, Sugrot “u yozda Arastu bilan uchrashaman”, degan o‘yda o‘ziga olib kelingan zaharnı paysalga solmay ichgan ekan. Ya‘ni ajal — Sugrot uchun go‘yo Arastu eshigini ochib beruvchi bir yo‘l. Donishmand diydoriga yetishish oldida og‘u hech narsa emas! Ustozim Toshxo‘ja Xo‘jayev aytardi: “Agar sen Alisher Navoiy, Shekspir kabi ijodkorlarga o‘tmish shoirilari yo moziydagi bir odam deb qarasang, ular chindanam olisdagi bir afsona bo‘lib qolaveradi. Ularnı zamondoshingdek qabul qil. Go‘yoki sen hozir shu zotlar bilan uchrashasan, gaplashasan”. Shundagina ular bizni ham o‘ziniqı qilib oladi.

Qo‘yayotgan spektaklimni shu siymolar ko‘rganda nima der ekan deb xayoldan o‘tkazsang, ish umuman boshqacha tus oladi. O‘ylashimcha, shoirlar “Agar she‘rimga Navoiyning ko‘zi tushganda u kishi ne der edi?” deya istihola qilganda edi, qanchadan-qancha she‘rlar, yostiqlay-yostiqlay kitoblar yozilmagan bo‘lardı. Lekin hayotda bunday prinsip bilan yashashni hammamay eplayvermaydi-da! Nima bo‘lgan taqdirdayam navoiylarnı o‘zimizdan uzoqlashtirmasdan, yaqin do‘stdek qabul qilish, ular bilan suhbatlashish kerak. Chunki olam hali tugagani yo‘q. To‘rt-besh asr dunyo uchun hech narsa emas”.

4

Bahodir Yo‘ldoshev 1984-2004-yillarda Abror Hidoyatov nomidagi O‘zbek davlat drama teatriga badiiy rahbarlik qilgan. Bu teatrga u “Maysaraning ishi”, “Farmonibibi arazladi”, “Paranji sirlari”, “Qora kamar”, “Ziyofat”, “Iskandar”, “Firidun”, “Nodirabegim”, “Ipak yo‘li” kabi asarlarnı sahnalashtirgan. Ushbu dargohda ishlash jarayonidagi ijodiy izlanishlarini teatrga yangi dramatik kuchlarnı jalb etish, zamonaviy sahna shakllaridan me‘yorlida foydalanish yo‘li bilan davom ettirdi. Natijada u sahnaga olib chiqqan ko‘plab asarlar oltin fondan joy oldi.

Bundan tashqari, hech bir qolipu andozalarga sig‘maydigan, sahnalashtirgan asarları durdonalar qatoridan joy olsa-da, kamtar, teatrmı o‘z qismati deb biladigan rejissyor mamlakatimiz va xorij teatrlariga spektakllar qo‘yib, haqli



bo‘lmaydi, ko‘ngli juda bo‘sh bo‘ladi. Shu uchun iste‘dodli odamlar hamisha boy berib kelishgan. Iste‘dod egasi odamlar bilan emas, asosan, o‘z xayoli, o‘zligi bilan band. Unga orzusidagi mukammallikka intilishiga xalal berishmasa, bo‘ldi. Bu mukammallikni iste‘dodsizlar o‘z darajasida — karyera, shon-shuhrat, obro‘-e‘tibor va yana allambalo deb tushunishadi.

Chin iste‘dod esa faqat bitta manzilni ko‘zlaydi — YETUKLIK! Ya‘ni shamollar-u alangalarga qilt etmasdan, tik turish san’ati. O‘zingni topish yo‘lida esa qarama-qarshiliklar, to‘siqlar nihoyatda ko‘p. Atrofdagi odamlar, muhit bor kuchi bilan insonning inson bo‘lishiga xalal beradi. Nafs, hasad, nazari ohlik kabi qora tuyg‘ular o‘zingni anglashga yo‘l qo‘ymaydi. Qolaversa, ich-ichingdan yuksalishingga yolg‘iz kuching yetmaydi. Buning uchun, albatta, atrofigina seni tushunadigan, xayrixoh odamlar bo‘lishi darkor. Odam bo‘laman, desang, oldingda ma‘naviy rahnamong bo‘lishi shart”.

5

U nufuzli tadbirlar, mamlakat miqyosidagi bayram shodiyonalari — Mustaqillik va Navro‘z bayramiga bag‘ishlab o‘tkazilgan konsertlar, “Sharq taronalari” festivali, Mirzo Ulug‘bekning 600 yilligi va Amir Temurning 660 yilligi munosabati bilan o‘tkazilgan tantanalarda, milliy maqom va baxshichilik, milliy hunarmandchilik xalqaro anjumanlarida bosh rejissyor sifatida ham ishlagan.

1983-yili Abdulla Qahhor nomidagi Respublika satira teatriga, 2009-yilda “Diydor” eksperimental teatr-studiyasiga asos soldi va umrining oxiriga qadar unga rahbarlik qildi. Shuningdek, u Kaliforniya akademiyasining haqiqiy a‘zosi edi.

Intervyularidan:

— Tarixiy shaxs haqida film olayotgan rejissyor, hech bo‘lmasa, o‘sha tarixiy shaxs hayotining 5 foizini o‘rganib chiqishi shart. Avvalo, tarixiy shaxs haqida film oladigan odamning o‘zi shaxs bo‘lishi kerak!

Bitiklaridan:

“Rejissyor uchun spektakllar faqat repetitsiya davridagina yashaydi. Repetitsiya rejissyorning umriga umr qo‘shadi, muhokamalar esa umrni qirqadi. Garchi premyeralar ham repetitsiya hisoblansa-da, biz uchun bu — asarning o‘lgani. Shuning uchun ham bir vaqtlar odamlar Meyerxoldning repetitsiyalariga pul to‘lab kirishgan. Chunki jarayon qiziq”.

6 Buyuklarga izdoshlik saodati

Tesha MO‘MINOV, O‘zbekiston xalq artisti:

— Har bir rejissyorning o‘z yo‘li bor. Katta iste‘dod sohibi Bahodir Yo‘ldoshev asarnı asardan farqlay oladigan rejissyor edi. Pyesada nima mavzu ko‘tarilgan, tomoshabinga u nima beradi, odamlar tafakkurida qanday o‘zgarishlar yasay oladi — Bahodir aka buni tiyrak nigohi bilan ko‘ra bilardi.

Asar, rejissura va aktyorlar jamoasi spektaklning muvaffaqiyatini ta‘minlaydi. Drama,

komeidiya, tragediya, zamonaviy yo tarixiy asar bo‘lsin, Bahodir Yo‘ldoshev barcha obrazni o‘z egasiga topshirar edi. Unda har bir aktyorning ichki dunyosini ochib beradigan tilsim kaliti bor edi. Obraz yaratish oson ish emas. Muvaffaqiyatning 1 foizi iste‘dodga, 99 foizi mehnatga bog‘liq.

Hatto kichik epizodik rolnı sahnaga olib chiqish mashaqqatini bilish, his qilish uchun aktyor bo‘lish lozim. Bahodir Yo‘ldoshev repetitsiyalarini ko‘rgan odam terga botib ketardi. Faraz qilypasizmi, rol o‘ynayotgan aktyor yo uni sahnalashtirayotgan rejissyor nari tursin, chetdan tomosha qilayotgan odam ham hayajonga tushardi.

Bahodir aka o‘zi mehnat qilib charchamas, aktyorlardan ham shuni talab qilardi. Ayni paytda u san’atkorga katta madad ham beradigan rahbar edi. Men u sahnalashtirgan qator spektakllarda obrazlar yaratganman, uning ijod oshxonasidan bevosita bahramand bo‘lganman. Shuningdek, xalqimizning sevimli aktyorlari Afzal Rafiqov, Elyor Nosirov va boshqa qator iste‘dodlar Bahodir Yo‘ldoshev bilan hammaslak bo‘lgan. Uning professionalligi shunda ediki, qadim san’at turi bo‘lgan teatr odamlarnı ma‘naviy yuksaklikka ko‘taradigan, ularning qalbini go‘zallikka to‘ldiradigan ma‘naviy sarhad ekanini yaxshi anglar va atrofidagilar ham ushbu haqiqatni tushunib yetishini istar edi. Shuning uchun Bahodir aka sahnaga olib chiqqan asarlar eng mohir xalqaro teatrshunoslar, teatr tanqidchilarining ham e‘tirofiga sazovor bo‘lardı. Uni Mannon Uyg‘ur, Yetim Bobojonov yaratgan o‘zbek rejissura maktabi an‘analarining munosib davomchisi sifatida tan olishar edi.

Intervyularidan:

Ustimdan shikoyat yozib, mening uslublarimni tushunmagan, yuqori tashkilotlardan menga alohida e‘tibor berishlarini talab qilganlar ham bo‘ldi. Shunda men o‘z-o‘zini ifoda etish vositalarida erkin bo‘lish juda qiyinligini angladim. Ungacha buni tushunardim, ammo shuncha negativni kutmagandim. Meni “millatchi” va “mentalitetga mos kelmaydigan spektakllar qo‘yadigan rejissyor” deb atashardi. Ammo teatr ziddiyatlarisiz va xavf-xatarsiz mavjud bo‘la olmaydi.

Bitiklaridan:

“Yaxshi ijodkor — yaxshi insonmi? Bu — qonun emas. Ko‘pchilikning tasavvurida o‘rnashib qolganki, bu yozuvchimi, demak, u yaxshi odam bo‘lishi kerak. Lekin bu qarash har doim ham o‘zini oqlayvermaydi. Yaqin o‘tmishga nazar tashlaylik. Ijodkor shaxsiyatining nihoyatda murakkab ekanini, u ham hamma qatori ojiz kimsaligini o‘tizinchı yillar davri yaqqol isbotlaydi. Shekspir Yagonı yozishi uchun uning o‘zida Yago bo‘lishi kerak. Shundagina u yagolar ruhiyatini teranroq his etadi, ochib beradi. Xasilik borasida hammani ortda qoldiradigan Qori Ishkambaning muallifi Ayniy haqidagi gaplar ham bejiz emas. Ular o‘zining illati ustidan kulib yozsa, fojialarini yig‘lab yozadi”.

7

Nodir MACHANOV, ozarbayjonlik taniqli rejissyor:

— 1991-yilda Boku universitetini tamomlab, Toshkent davlat san’at va madaniyat institutining

66

Agar u faqat aktyorlik bilan shug‘ullanganida ham o‘zbek kinosida yuksak cho‘qqilarnı zabt etardi. Negaki uning Muxtorov (“Tog‘dagi uchrashuv”), Sherzod (“Olmos kamar”), Sobirov (“Oshpaz”), Murodxon (“Dev bilan pakana”) va boshqa obrazlari kino ixlosmandlarining xotirasidan mustahkam o‘rin olgan. Lekin u boshqalarga imkon berdi. Imkon bo‘lganda ham rejissyor sifatida har bir yalt etgan iste‘dodni ilg‘ay bildi, yashirin iqtidorlarnı kashf etdi.

kinorejissyorlik fakultetiga o‘qishga kirdim. Saboqdoشلarim bilan tez-tez turli mahalliy teatrlarga borib turardik. Bir kuni Abror Hidoyatov nomidagi O‘zbek drama teatrida bosh rejissyor bo‘lib ishlayotgan Bahodir Yo‘ldoshev bilan uchrashish baxtiga muassar bo‘ldim.

Teatr foyesida o‘zbek aktyorlarining suratlarini tomosha qilib turgandim, Bahodir aka zalda emasligimdan avvaliga jahli chiqdi. Keyin ozarbayjonlik ekanimni bilgach, yuzi yorishib ketdi. Ozarbayjonni, bizning san’atimizni, musiqamizni juda yaxshi ko‘rishini aytıdi. O‘zbek rejissyori Shuhrat Abbosov ustozim ekanini eshitib, yana quvondi.

Spektakl yakunida xalq artisti meni — yosh hamkasbini xonasiga taklif qildi. Devorda Uzeir Hojibeylining mashhur “Arshin mol olan” asari afshasi ilinganini ko‘rib, hayratda qoldim. Bahodir Yo‘ldoshev bir paytlar onasi Shirin Meliyeva ushbu asarda rol ijro etganini aytib berdi. Shundan so‘ng bu teatrga tez-tez boradigan bo‘ldim. Spektakllar repetitsiyalarida qatnashib, har safar Yo‘ldoshevning iste‘dodidan hayratga tushardim. Hayotim va ijodiy parvozimda o‘zbek kino ijodkorlari katta rol o‘ynagan. Oliyohnda, aytganimdek, Shuhrat Abbosov va Ulug‘bek Zufarov, sahnada esa Bahodir Yo‘ldoshev ustozim edi.

Shuning uchun u haqida o‘rgan zamonda gapirishni istamayman. U men uchun barhayot. Bahodir Yo‘ldoshev menga ko‘p narsa o‘rgatdı. U doim yangilik izlar, tomoshabinlarga nima qiziq ekanini bilardi. Men — oddiy talaba, u mashhur shaxs bo‘lishiga qaramay, meni “do‘stim”, deb atardi. Bahodir og‘a Bokuda ko‘p bo‘lar, bu yerda uning do‘stlari bisyor, shuning uchun Ozarbayjon madaniyatidan yaxshi xabardor edi.

Intervyularidan:

— Rejissura shunday kasbki, har bir spektaklda shu kasbni qayta himoya qilishga to‘g‘ri keladi. Bitta yaxshi chiqmagan spektakl o‘nta yaxshi ishingizni yuvib ketishi mumkin. Men ishimni eksperiment deymen, ishimiz har gal qaysi yo‘ldan borsak, tomoshabinga ma‘qul keladi degan o‘ylashdan iborat.

Bitiklaridan:

“Odamdaz qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha qoladi. Insoniyat hech qachon o‘zgarmaydi! Hazrat Navoiy va Shekspiring klassikligi shundaki, ular o‘z asarlarida odamdagi barcha hissiyot hamisha yashashini isbotlagan. Yagoning qilmishi — hech qachon o‘lmaydigan qilmish. “Otello” tragediyasida qahramonlarning barchasi o‘ladi, faqat Yagogina “Men yaralandim!” deydi. “O‘ldim!” demaydi. Shekspir uni “tirik qoldiradi”.

Yomonlikni, yovuzlikni, fitnani faqatgina yaralash mumkin, xolos. Uni o‘ldirib bo‘lmaydi. Odamdaz qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha qoladi. Hayotdagi biroi-bir johillik yangidan o‘ylab topilgan johillik emas. Jaholatning yangisi yo‘q. Har bir yovuzvchi o‘zi bilgancha dunyoning bir eshigini ochadi-da, o‘sha yerdan turib, “Hey odamlar, sizlar insonsizlar!” deb ulariga inson ekanini eslatadi. Hozir haqiqatlariga nigoh tashlashga undaydi. Rejissyor esa uni o‘zining yovuoqarashidan kelib chiqib talqin qiladi”.

8

So‘nggi bitik:

“Men bolalarimni ko‘proq kitob bilan do‘st tutinishlarini xohlar edim. Bilimsiz hech narsa qilib bo‘lmaydi. “Qur‘on”ni o‘qish uchun ham katta ilm kerak. Agar kitob javoningizda “Qur‘oni karim” tursa-yu, o‘qilmasa, bu muqaddas kitobni uvol qilgan bo‘lasiz! Hadisi sharifidam aytilgan-ku, “Beshidkan to qabrgacha ilm izlai” deb.

Har yili imkon qadar Shekspirni qayta-qayta o‘qib chiqishni xohlayman. Alisher Navoiynı har kun o‘qish kerak deb bilaman. Hech bo‘lmaganda bir g‘azalini mutolaa qilib mag‘zini chaqish shart. Bitta romanni o‘qigandek bo‘lasan”.